

**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi  
Ochilova Noila Farmonovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,  
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan “Ingliz va  
o‘zbek tillarida irrealis tarkibining kognitiv asoslari” mavzusidagi  
dissertatsiya avtoreferatiga**

**TAQRIZ**

Zamonaviy tilshunoslikda tilning har bir jabhasida yangiliklar rivojlanib bormoqda. Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning madaniy va ruhiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, madaniy-milliy kodni saqllovchi manba sifatida tan olinadi. Tilda insonning hissiy sohasi turli so‘zlar yordamida ifodalanadi. Ana shunday so‘zlarni tilshunoslikda realis yoki irrealis orqali tatbiq qilish mumkin. Irrealisning lingvistik ahamiyati tilshunoslikda ko‘plab olimlar o‘rtasida bahs munozaraga sabab bo‘lib kelmoqda. Irrealis orqali ushbu tushunchani ochib beruvchi kirish so‘zlar, bog‘lovchilar yoki qo‘srimchalar ham tadbiq qilinadi. Zotan, tildagi har bir tushuncha nafaqat bir tilni balki boshqa chet tilini ham rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sadi. Buni hozirgi rivojlanayotgan zamonda mamlakatimizda chet tilini o‘rni beqiyos ekanligi bunga zamin yaratadi.

Dissertatntning tadqiqotidan asosiy maqsad ingliz va o‘zbek tillarida irrealis tarkibining kognitiv asoslarini qiyosiy aspektida aniqlashdan iborat. Dissertatsiyada muallif quyidagi asosiy vazifalarni qo‘ygan:

Til birliklarini tadqiq qilishga doir lingvistik yondashuvlar nuqtayi nazaridan irrealis hodisasining kategorial belgilari, modal munosabatlari va epistemik modallikni ifodala;

ingliz va o‘zbek tillarida irrealisning konseptual mohiyati uning til birliklari sathida pragmatik va tipologik tahlilini belgilash;

ingliz va o‘zbek tillari nutq jarayonida sodir bo‘lgan vaziyatlarning irreal ifodalanishi va uning kognitiv xususiyatlarini ko‘rib chiqish;

ingliz va o‘zbek tillarida temporal munosabatlari vaziyatlarda irrealisning ifodalanishi hamda ingliz va o‘zbek tillari kontekstida o‘ziga xos o‘xhash va farqli xususiyatlarni aniqlash.

Dissertatsiya ilmiy yangilik jihatidan qiziqarli va ahamiyatli bo‘lib, bir necha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Qiyoşlanayotgan tillarda irrealis hodisasining qo‘llanish zarurati muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intensiyasi, ruhiy holati, fundamental bilimi, nutqiy vaziyatga bevosita bog‘liq ekanligi va mazkur jihatlar muayyan kontekstda namoyon bo‘lishi isbotlangan;

2. Ingliz va o‘zbek tillarida kommunikativ maqsad xarakteristikasini belgilab beruvchi vaziyatlarning irreal ifodalanishi, konseptual mohiyati, lisoniy tuzilishi, uning til sathlarida pragmatik va kognitiv xususiyatlar integratsiyasi negizida shakllanganligi asoslangan;

3. Irrealis mazmuni faqatgina modal munosabatlar, zamon ifodasi bilan aloqador hodisa bo‘lmay, balki bevosita konseptuallashuv, diskursiv funksiyalar, ehtimoliy kelajakka qaratilgan aktlar, temporal-modal munosabatlar ishtirok etgan buyruq, maqsad, taqiq, istak gaplar faollashuvida namoyon bo‘lishi dalillangan;

4. Ingliz tilida irrealis “bir” raqami bilan ifodalanib, semantik vazifasi noaniq artikl bilan taxminan bir xil bo‘lishi, ammo o‘zbek tilida “bir” raqami so‘z sifatida boshqa leksik vositalarga birikib ma’lum ibora va konsepsiylar orqali irrealisni hosil qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillarini o‘rganish jarayonida, shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borishda muhim nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu ish lingvistlar va til o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matn 125 sahifani tashkil etgan.

Dissertasiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning dastlabki birinchi bobu “Irrealisning kategorial belgilari” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda irrealisning mavjudlik ehtimolini o‘rganishning

ahamiyatini ta'kidlangan. Ushbu konsepsiyaning semantik jihatdan mutanosibligi, aksariyat irrealis konstruksiyalarida masalan, gipotetik shart gaplar, qarama-qarshi shartlar, yon bosish shartlari, optativlar, buyruqlar, muqobil munosabatlar tahlil qilinishi zarurligini ko'rsatilgan. Kategorial begilar turkumiga irrealisga xos ko'rsatkichlarni aks ettiradigan grammatik birliklar namoyon qiladi.

Dissertatsiyaning "Irrealis vositalarining konseptual mohiyati" tadqiqiga bag'ishlangan ikkinchi bobida irrealis konseptuallashuvining asosiy prinsiplari, realis va irrealis konstruksiyalaridan foydalanish kontekstlarini tavsiflashda lingvistik tushunchalarning batafsil darjasи haqidagi ma'lumotlarga tayaniлади. Yana bir jihat shaklli ma'lumotlarning aniq ko'rsatkichlari darajasida bo'lib, bunda metallingistik tushunchalar va atamalar tafsiloti darjasи muhim hisobланади. Bu, xususan, ma'lum tillardagi irrealis kategoriysi turli konstruksiyalar va kontekstlarda qanday qo'llanilishini tasvirlaganda yuzaga keladi. Irrealisning prototipini aniqlashda faqat tildagi lisoniy vositalarga qarab erishish mumkinligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobи "Temporal munosabatli vaziyatlarda irrealis ifodasi" deb nomlangan bo'lib, temporal munosabatli vaziyatlarda irrealis turli zamonlarda moslashib kelishi va asosan kelasi hamda o'tgan zamonni ifodalab keladi. Mazkur bob nutq paytida sodir bo'ladigan vaziyatlarning irreal ifodasi, irrealis belgisi so'zlovchi haqida hech qanday ma'lumot bermasligi, irrealis mazmuni faqatgina modal munosabatlar, zamon ifodasi bilan aloqador hodisa bo'lib qolmasdan, uning ko'rsatkichlari bevosita konseptuallashuv bilan bog'liqligi hamda irrealis atamasining qo'llanilishida ba'zi bir noaniqliklar uchrashi masalalariga bag'ishlangan fikr-mulohazalar bilan boyitilgan.

Tadqiqotchi mavzu ustida jiddiy kuzatishlar olib borgan, tadqiqotga oid adabiyotlardan yaxshigina xabardorligi ko'rinib turibdi. Dissertasiya avtoreferatining so'nggidagi "Xulosa"si barcha bob va fasllarda bayon qilingan ilmiy faraz va xulosalarni umumlashtiruvchi xususiyatga ega.

Ishning oxirida e'lon qilingan ishlar ro'yxati keltirib o'tilgan va u tadqiqotni keng ommaga yetkazishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, dissertant o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishgan. Tadqiqot o‘ziga xos nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot irrealisning kognitiv asoslarini har tomonlama o‘rganishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi va o‘zidan keyingi yangi tadqiqotlarga ham yo‘l ochadi.

“Ingliz va o‘zbek tillarida irrealis tarkibining kognitiv asoslari” mavzusidagi ushbu dissertatsiya tugallangan ilmiy ish bo‘lib, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligiga mos keladi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi nizomida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari uchun belgilangan talablarga to‘la javob beradi.

Ish muallifi Ochilova Noila Farmonovnaga ushbu tadqiqot asosida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish mumkin.

**Taqrizchi:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik  
va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti,  
filologiya fanlari doktori (DSc)**

**Rustam SHARIPOV**

